

# “O‘ZBEK TILI STILISTIKASI VA NUTQ MADANIYATI MASALALARI”

nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiya  
MATERIALLARI

*Samarqand, 2023-yil 19-20-may*



**RAHMATULLA QO'NG'UROV**

*90 yoshda*

madaniyatini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Maqollarda ming yillardan beri isbotini topgan xalq haqiqati yotadi. Ularda xursandchilik va g'am, qahr, muhabbat, hasad, hazil ifoda etiladi. Maqollar va naqlar mehnatni ulug'laydi, dangasalikni qoralaydi, yaxshilikni, inshonchni mustahkamlaydi. Ular nafaqat nutq ifodaliligini kuchaytiradi, chiqishlarga mazmun va o'tkirlikni, chuqurlashtiradi, balki eshituvchilar yuragiga yo'l topadi, ularning hurmat va e'tiborini qozonishga yordam beradi. Shuning uchun nutqda maqollar va naqlar alohida o'ringa ega. Nutqda maqol va naqlardan foydalanishdagi muvaffaqiyat, ular qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq.

Hozirgi paytda xalq maqolalari va ijodi to'plamlari soni juda ko'p va ular talabalarning qo'l ostida bo'lishi kerak. Ular yordamida tashqariga chiqayotgan axborot matni jonliroq va ishonchliroq bo'ladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev «Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. "Cho'lpon" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent, 2013.
2. A. Madvaliyev. O'ZME Birinchi jild. -Toshkent. 2000-yil.
3. K.Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1996.

### **ADABIY ME'YORNING SHAKLLANISHIDA KINO TILINING O'RNI VA AHAMIYATI**

*(PhD) Shirinova M.Sh., BuxDU*


**Annotatsiya.** Maqolada kino tili va adabiy me'yor tushunchalarining bir-biriga bog'liq ekanligi, kino tilida uchraydigan adabiy me'yor ko'rinishlari xususida so'z boradi. Shuningdek, har bir tilda adabiy me'yor shakllarining amalda qo'llanilishi, keng yoyilishi, taraqqiy topishida kino tili muhim vosita ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** kino, kino tili, adabiy me'yor, og'zaki nutq me'yorlari, yozma nutq me'yorlari, titr.

Adabiy me'yor tilni nazorat qiluvchi qoidalar majmuidir. Ma'lum bir xalqqa xizmat qiluvchi har qanday adabiy til me'yor asosida shakllanadi. Adabiy tilni E.Begmatov, A.Mamatovlar "...undan foydalanuvchi jamiyat a'zolarining mushtarak quroli sifatida barcha uchun bir xilda tushunarli, foydalanishga qulay bo'lishi, ko'pchilikka maqbul tushishi lozim. Buning ustiga, adabiy til va uning lisoniy vositalari til egasi bo'lmish jamiyat a'zolarining estetik va etikaviy talablariga, madaniy va ma'naviy ehtiyojlariga hamohang bo'lishi zarur" [Begmatov, Mamatov, 1999: 4] deya izohlashadi.

Til hamisha harakatda bo'lib, doim rivojlanib yangilanib turadi. Shu bois adabiy me'yor ham vaqt o'tgan sayin o'zining ma'lum kriteriyasini boshqasiga bo'shatib beradi. Aks holda ushbu mezonlar jamiyat uchun xizmat qilmay qo'yadi. Til me'yorlarining o'zgarish hamda rivojlanish xususiyatlari ma'lum davrda til me'yorlarini o'rnatish jarayonida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi; tilshunoslik fani oldida ushbu muammolarni yechishdek yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Dunyo tilshunosligida adabiy me'yor turlari masalasi

adabiyotlarda turlicha izohlangan. Shu sababli hanuzgacha bir to'xtamga kelingan yakuniy xulosa uchramaydi. O'zbek tilshunosligida ayni shu masalaga oid ishlarni tahlil etgan E.Begmatov va A.Mamatovlar esa 13 ta me'yor turini sanab o'tishadi [Begmatov, Mamatov, 1998: 131-132]. V.Moskvin [Moskvin, 2004: 37] esa bu masalada quyidagi tasnifni keltirib o'tadi [1-rasm]:



1-rasm. Me'yor turlari.

Tasnifdan ko'rish mumkinki, kinofilmlar tili ham og'zaki, ham yozma nutq me'yorlariga tayanadi. Odatda, me'yor buzilgan-buzilmaganligini aniqlash yozma nutqda oson amalga oshiriladi. Buning uchun nazariy bilimga ega bo'lish yetarli. Natijada yozuvda muhrlanib, ko'zga yaqqol tashlanadigan me'yoriy holatlar yoki og'ishlar tezda aniqlanadi. Ammo og'zaki nutqda ushbu jarayon biroz murakkab kechadi. Bu murakkablikni turli jihatlar yuzaga keltiradi: talaffuz me'yorlarini to'la anglay olmaslik, intonatsiya va uning funksiyalarini bilmaslik, eshitish hamda anglash qobiliyatining sustligi, sheva unsurlarini ajrata olmaslik va boshqalar.

O'zbek adabiy tili qat'iy qonun-qoidalar, ya'ni adabiy normaga ega bo'lganidek, kino tili ham o'z me'yoriga ega. Kino adabiy tilning og'zaki shakli me'yorlarini o'zlashtirishda namuna vazifasini o'taydi. Mustaqillik kinofilmlar tilining qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Ularni tahlil etishda quyidagi me'yor ko'rinishlarini inobatga olish zarur [2-rasm]:



2-rasm. Kino tilida adabiy me'yor turlari.

Kino tilida odatda yozma nutq me'yorlari titrda, og'zaki nutq me'yorlari esa aktyor nutqida namoyon bo'ladi.

San'atlar orasida tomoshabinni tezda o'ziga rom qilib, ekran oldidan siljishga yo'l qo'ymaydigan, ko'ngilochar tur kinodir. Kino yunoncha *kineo* "harakatga keltiraman" degan ma'noni anglatib, o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi sifatida kinematografiyaga, kinofilmga aloqadorlik ma'nosini bildiradi [O'TIL, 2006: 368]. Qahramonlar, so'zlar, rang-tasvir, kadr va boshqalarni "harakatga keltirib", katta-yu kichikni o'ziga mahliyo qilgan ushbu san'at turi o'ziga xos tilda so'zlaydi. Dastlab Parijda 1895-yil 28-dekabrda ixtirochi aka-uka Lui va Ogyust Lumerlar o'zlari kashf qilgan texnika yordamida "Poyezdning kelishi", "Bolani ovqatlantirish" kabi kinometrajlarini suratga olishgan. Ushbu kun tarixda kino san'atining vujudga kelish kuni deya muhrlandi [Abulqosimova, 2009: 3]. Shundan buyon kino ommaga, jamiyatga qaratilgan san'at turi sifatida baholanib, undagi har bir vosita tarbiya kaliti vazifasini o'tab kelmoqda.

Kino tilidagi har bir so'zning o'z "yuk"i bor. Ana shu "yuk"dan foydalanganimizda adabiy me'yorni unutib qo'ymasligimiz zarur.

Kino tilining ta'sir kuchi badiiy asar tilidan bir necha marta ortiq, chunki kinoni katta-yu kichik qiziqish bilan, ekran yonidan jilmay tomosha qiladi. Kinoni tomosha qilish yosh tanlamaydi. Hattoki savodi chiqmagan yosh bolajonlar ham o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqib ibrat oladilar. Agar kino tilida yot unsurlar qanchalik ko'p bo'lsa, tarbiya ham shunchalik salbiy tomonga og'adi.

Kino tili (san'at tili)ni tushunish uchun kinoshunoslik fanidan xabardor bo'lish, ma'naviy salohiyat, bilim talab qilinmaydi. Ushbu jihatga e'tiborsizlik bilan qarash tijorat kinolari, shuningdek, tajovuzkor, buzg'unchi kinolarning g'alabasi bilan tugashiga asos bo'ladi.

Kino tili adabiy tildan ko'ra demokratikroq, ya'ni xalq tiliga yaqinroq bo'lishi kerak. Bu degani adabiy til me'yorlaridan butunlay voz kechish yoki ularni buzish mumkinligini anglatmaydi. Fan-texnikaning yuqori bosqichlarga ko'tarilishi kino tilini murakkablashtirdi, ammo uni yuzaga keltirishda bir qancha qulayliklarni yaratdi. Ma'lumki, kino (kino tili)ni yuzaga keltirishda faqat ssenariynavis emas, balki rejissor, prodyusser, aktyor, montaj ustasi, ovoz rejissori, grafika ustasi, operator, kompozitor, ovoz berish ustalari va boshqa ijodkorlarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, aktyor nutqidagi biror jumla qay tarzda talaffuz etilishidan qat'i nazar montaj jarayonida tovush tezligi/tembri o'zgartirilishi yoki dublyaj jarayonida boshqa aktyor tomonidan ovoz berilishi yoxud boshqa so'z talaffuz etilishi mumkin. Aynan shu o'rinlarda texnikaning roli yaqqol ko'rinadi.

Kino tili va adabiy me'yor tushunchalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish kinoshunoslik hamda tilshunoslik sohalari uchun birdek ahamiyatlidir. Zero, kino tili – murakkab til, uni tahrirlab ekranga olib chiqish mashaqqatli mehnatdir. Ssenariylarni kino tili – ekran tiliga o'girish uchun kinomuharrir degan mutaxassis tayyorlash zarur. Kinomuharrir ham kino san'atidan, ham rejissorlikdan, ham adabiyotdan, ham til me'yorlaridan xabardor bo'lmog'i lozim. Shundagina kino tili sayqallanib, o'z maqsadini amalga oshiradi. Bu maqsadni amalga oshirishda esa tilshunoslik fani beminnat yordamchi vazifasini o'taydi. Mashhur fransuz rejissori Andre Bazan ta'biri bilan aytganda, "*Yosh go'dak kimgadir tayanib oyoqqa*

turganidek, kino ham o'z taraqqiyotining ilk pallalari adabiyotga tayanib, qaddini tikladi" [10]. Bugungi kunda qaddini tiklab olgan kinoni tilshunoslik nuqtayi nazardan, adabiy me'yor aspektida tahlil etish ssenariyning badiiy salmog'i yuqori, oldi-qochdi gaplardan xoli bo'lishini ta'minlaydi. Zero, voqealar tizimi bir-biriga o'xshamaydigan, tilining soddaligi, jozibardorligi bilan hammani o'ziga mahliyo qiladigan kinofilmlar yaratish davr talabidir.

Kino tili turli sohalar uchun obyekt vazifasini bajara oladigan juda serqirra hodisadir. Tilshunoslik obyektini sifatida kino tili ekran uchun mo'ljallangan, audiovizual, hamma uchun tushunarli bo'lgan tildir. Unda audiovizuallik, harakatlilik, majoziylik, obrazlilik, ekspressivlik, kommunikativlik, ko'ngilocharlik, ekran uchun xoslanganlik, ijtimoiylik, ixchamlik, o'ziga rom qilish, tushunarlilik kabi xususiyatlar bo'lishi lozim. Kino tili adabiy til me'yorlarining targ'ibotchisi vazifasini o'tashi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: "O'zME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – B.3.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi (Adabiy normaning shakllanish va yashash qonuniyatlari). – T.: Navro'z, 1999. – B.4.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi (Adabiy normaning tiplari). – T.: Navro'z, 1998. – B.131-132.
4. Москвин В.П. Правильность современной русской речи. Норма и варианты. – Волгоград: Перемена, 2004. – 149 с. – С.37.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. II. E-M/ Tahrir hay'ati: T. Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 368.
6. Shirinova M.Sh. The issue of literary norms in the language of cinema // International Journal on Integrated Education, 2020.March.e-ISSN: 2620 3502. p-ISSN:2615 3785. Impact factor 6.196. Vol.3. Issue 3.–P.35-40.
7. Shirinova M.Sh. Kino tili tushunchasi va uning xususiyatlari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2019. 4-son. – B.182-185
8. Shirinova M.Sh. Kino tilida adabiy me'yorning o'rni // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2020. 7-son. – B.236-240
9. Shirinova M.Sh. O'zbek kinofilmlari tilini lingvistik aspektida o'rganishning ahamiyati / "Buxoro viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va echimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2020. – B. 1067-1071.
10. <https://ziyouz>.

## **O'ZBEK TILI REKLAMA DISKURSIDA NUTQ MADANIYATI**

*Botirova M.B., TerDU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tili nutq madaniyati, o'zbek tilshunosligida diskurs tushunchasi talqini, o'zbek tili reklama diskursida nutq madaniyatiga xos bo'lgan birliklar tahlil qilindi. Reklama diskursida ko'zga tashlanuvchi nutq sofligini buzuvchi vositalar haqida mulohaza yuritildi.

Narziyeva N.M.	Abdulla Oripov lirikasining tili va uslubi	89
Yunusova Sh.M.	Reklama matnining lingvistik xususiyatlari	91
Yaxshiyeva Z. R.	Amir Temur haqidagi tarixiy romanlarda xronotop masalasi	93
Allamberganova M., Taylakova M.	Talabalar nutqiga xos ba'zi kamchiliklar	96
Shirinova M.Sh.	Adabiy me'yorning shakllanishida kino tilining o'rni va ahamiyati	99
Botirova M.B.	O'zbek tili reklama diskursida nutq madaniyati	102
Norboyeva D.J.	Xizmat ko'rsatish soha mutaxassislarini rivojlantirishda kasbiy terminologiyaning o'rni	105
Xojiyeva M. Y.	Tildagi shaxs va uning maqomi	108
Abdullayev O.I.	O'zbek va qoraqalpoq tillarida zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili	110
Yokubova Sh. Y.	Poetik nutqda sintaktik figuralarning qo'llanishi	114
Sharipova M. J.	O'zbek xalq maqollarida kontrast ("qo'y" lug'aviy-ma'naviy guruhi asosida)	116
Barnoyeva S.U.	Lingvokulturologiya antroposentrik tilshunoslikning yo'nalishi sifatida	119
Tursunov M.S.	O'zbek tili matnlarini razmetkalash	122
Turdimurodov U.S.	Toponimlarni tadqiq etishda stilistik va statistik metod	125
Bobotayev M.I.	"O'zbek tilining izohli lug'ati" da shevaga oid so'zlarning shakliy-struktur tavsifi	128
Комилова М.К.	Использование педагогических технологий на уроках русского языка в воспитании высоконравственного поколения	131
Abatov D. R.	Qashqadaryo xalq dostonlari tilida qo'llangan sodda asosli onomastik birliklar tadqiqi	134
Sharipova O.X.	"Devonu lug'otut turk" asaridagi "vatan" konsepti qo'llangan maqollarning lingvokulturologik tadqiqi	136
Yo'ldosheva D.X.	XXI asr o'zbek dramaturgiyasida pleonazmning pragmatik xususiyatlari	139
Nurmanova S.	Sirojiddin Sayyid she'rlarida "ayol" konseptining kognitiv talqini	141
Odinayev B.I.	Sinestetik metaforalarning stilistik-pragmatik xususiyatlari	145
Nabiyeva Sh.I.	O'zbek adabiy tilida me'yor muammosi	148
Rahmatova Y.Sh.	Frazema va leksemaning semantik-struktur xususiyatlari	151
Toshova X.S.	Qizil rang bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturalogik talqini	153
Abdumannotova N.A.	"Hotamnoma" asaridagi ayrim so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari	156